

## XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA DEBITORLIK QARZLARI HISOBI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

Safarov Alisher Ibrohim o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika insitituti

Moliya va bank ishi kafedrası o'qituvchisi

e-mail: alilionsafarov@gmail.com

Xo'janazarov Samandar Bobir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika insitituti talabasi

e-mail: xujanazarovsamandar77@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda debitorlik qarzlarni hisobga olish va tahlil qilishning amaldagi usullari, ularning afzallik va kamchiliklari, shuningdek, qarzlarni boshqarish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar yoritilgan. Bundan tashqari, korxonalarda debitorlik qarzlarni hisobga olish va tahlil qilish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Debitorlik qarzlar, kredit, likvidlik, hisob-kitoblar tizimi,

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda debitorlik qarzlarni samarali boshqarish muhim o'rin tutadi. Debitorlik qarzlaridan tushadigan mablag'lar ishlab chiqaruvchi korxonalarining asosiy pul oqimlari manbalaridan biri hisoblanib, ularning o'z vaqtida qaytarilmasligi korxonada pul mablag'lari defitsiti yuzaga kelishiga olib keladi. Bu holat joriy faoliyatni moliyalashtirish uchun aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi va korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli korxonalar va xaridorlar o'rtasidagi hisob-kitob munosabatlarini takomillashtirish, kredit siyosati va qarzlarni boshqarish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zarurati tug'iladi.<sup>1</sup>

Bugungi biznes dunyosida debitorlik qarzlari tijorat faoliyatining doimiy hamrohidir. Biroq, agar debitorlik qarzlarni boshqarish jarayoni samarasiz bo'lsa, tashkilot likvidlik muammolariga duch keladi, bu esa rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Shuning uchun debitorlik qarzlarni samarali boshqarish faoliyat natijadorligini oshirishda juda muhim ahamiyatga ega Debitorlik qarzlarni noto'g'ri boshqarish bevosita pul oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shubhali qarzlar miqdorini oshiradi hamda operatsion risklarni kuchaytiradi, natijada o'sish va raqobatbardoshlikni cheklaydi.

Debitorlik qarzlarning ortishi korxonada naqd pul mablag'larining kamayishiga, ayrim hollarda esa ishlab chiqarish jarayonlarining to'xtab qolishiga sabab bo'ladi. Shu bois, debitorlik qarzlari ustidan doimiy va tizimli nazoratni yo'lga qo'yish, ularni o'z vaqtida undirish hamda kechiktirilgan qarzlar bo'yicha ta'sir choralarni korxonada qo'llash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, debitorlik vujudga kelishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Korxonalar o'rtasidagi zanjirli iqtisodiy bog'liqlik, moliyaviy beqarorlik holatlari, qarzlar bo'yicha ta'sir mexanizmlarining samarasizligi, makroiqtisodiy o'zgarishlar va avans to'lovlari amaliyoti shular jumlasidandir. Ushbu omillar qarzlar hajmining ortishiga va ularni boshqarishda murakkabliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi,

---

<sup>1</sup> Irzaev Ozod Furkatovich Renessans ta'lim universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti maqolasidan

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va me‘yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun hisob-kitoblar bo‘yicha vujudga kelgan debitorlik qarzi vujudga kelgan paytdan boshlab 90 kun o‘tgan bo‘lsa, muddati o‘tib ketgan debitorlik qarzi deb tan olinadi.

#### **Asosiy qoidalar:**

- **Hisoblash muddati:** 90 kunlik muddat shartnoma shartlariga ko‘ra kontragent tomonidan majburiyatlar bajarilishi kerak bo‘lgan (tovar jo‘natilgan, xizmat ko‘rsatilgan) kundan boshlanadi.
- **Oqibati:** 90 kundan oshgan debitorlik qarzi muddati o‘tgan hisoblanadi va korxonada mansabdor shaxslariga nisbatan Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 175-moddasi bo‘yicha jarima sanksiyalari qo‘llanilishi mumkin.
- **Istisno:** 2019-yil 1-yanvardan boshlab davlat ulushi 50 foizdan kam bo‘lgan tashkilotlarda muddati o‘tgan debitorlik qarzi uchun jarimalar qo‘llanilmaydi,<sup>2</sup>

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning debitorlik qarzlari kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Sh.Mirziyoyev 2025-yil 20-avgustda «Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqida tadbirkorlar tomonidan eksport operatsiyalarini amalga oshirishda tushumlarining kechikishi debitorlik qarzlarning, muddati o‘tgan debitor qarzdorlik uchun jarima to‘layotganligi» borasida alohida ta‘kidlab o‘tdi.<sup>3</sup>

Respublikaning barcha mintaqalarida debitorlik qarzlari to‘g‘riligini yoppasiga solishtirib chiqish ishlari tashkil etilganligi, ularning natijalari belgilangan muddatlarga muvofiq Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va budjetga to‘lovlar intizomini mustahkamlash bo‘yicha Hukumat komissiyasiga taqdim etilishi kerakligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.<sup>4</sup>

“Debitorlik qarzi - bu tashkilotning tovon olishga bo‘lgan shartsiz huquqidir. Agar tovon to‘lanishi lozim bo‘lgan paytning kelishi faqat vaqt o‘tishiga bog‘liq bo‘lsa, tovon olinishiga bo‘lgan huquq shartsiz hisoblanadi. Masalan, agar tashkilot to‘lovni olish bo‘yicha mavjud huquqqa ega bo‘lsa, hatto ushbu summa kelgusida qaytarilishi mumkin bo‘lgan taqdirda ham, tashkilot debitorlik qarzini tan oladi”. 15-sonli MHXSga ko‘ra qisqa muddatli debitorlik qarzlari adolatli (haqqoniy) qiymatda, uzoq muddatli debitorlik qarzlari esa adolatli qiymatida yoki amortizatsiyalanadigan qiymatida baholanishi mumkinligi keltirilgan<sup>5</sup>.

#### **Debitorlik tahlilining vazifalari**

- debitorlik qarzlarning yuzaga chiqish sabablarini o‘rganish;
- korxonaning debitorlik qarzlari holatiga baho berish;
- debitorlik qarzlarning vujudga kelish muddatlari bo‘yicha tasniflagan holda o‘rganish;
- debitorlik qarzlarning tarkibiy tuzilishi va dinamik o‘zgarishlariga baho berish;
- o‘tgan debitorlik qarzlarning mavjudligini va ularni tugatish yo‘llarini o‘rganish;
- qarzlarni kamaytirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlarni ko‘rsatib berish va hokazo.

**Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonuning ushbu moddalarida debitorlik qarzlarga quydagicha ta‘rif berilgan**

<sup>2</sup> Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 175-moddasi

<sup>3</sup> Sh.Mirziyoyev «2025-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi».

<sup>4</sup> Lex.uz DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI TO‘G‘RILIGINI TEKSHIRISH TO‘G‘RISIDA

<sup>5</sup> 15-sonli Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari

#### 16-modda Moliyaviy hisobot tarkibi

Debitorlik qarzarlar korxonaning moliyaviy holati to'g'risidagi hisobotda (balansda) joriy aktivlar (1 yildan kam muddatda qaytarilishi kutilsa) yoki uzoq muddatli aktivlar (1 yildan ortiq) tarkibida aks ettiriladi.

Hisobotda debitorlik qarzarlar bo'yicha hisoblangan ehtimoliy zarar zaxiralari (qarzning qaytmaslik xavfi bo'lganda) chegirib tashlangan holda sof qiymatda ko'rsatilishi lozim.

#### 17-modda Moliyaviy hisobot tuzish qoiadalari

Debitorlik qarzarlar ishonchlik tamoyili asosida, ya'ni asoslangan hujjatlar (shartnoma, schyot-faktura, dalolatnoma) bilan tasdiqlangan holda hisobga olinadi.

Hisobot davrining oxiriga debitorlik qarzarlar inventarizatsiya qilinishi va real qiymatda baholanishi shart (ya'ni, haqiqatda qaytishi kutilayotgan summa)

#### 18-modda Boshlang'ich hisob hujjatli

Debitorlik qarzarlar faqat dastlabki hisob hujjatlari (to'lov topshiriqnomasi, yuk xati, shartnomalar) asosida buxgalteriya registrlarida qayd etiladi.

Hujjat rasmiylashtirilmagan debitorlik qarzini hisobda aks ettirish taqiqlanadi.

#### 27-modda Inventarizatsiya

Korxonada debitorlik qarzlarining mavjudligi va holatini aniqlash uchun majburiy inventarizatsiya o'tkazadi.

Inventarizatsiya natijasida muddati o'tgan (umidsiz) debitorlik qarzarlar aniqlanadi va ular qonunchilikda belgilangan tartibda hisobdan chiqariladi yoki zaxiralar hisobiga qoplanadi.

#### **Qarzarlar va debitorlik qarzarlar**

Faol bozorda kotirovka qilinmaydigan, to'lovlari belgilangan yoki aniqlanadigan nomoliyaviy hosilaviy aktivlar. Amortizatsiya qilingan qiymat bo'yicha samarali foiz stavkasi usulida baholanadi.<sup>6</sup>

#### **“BIOTEX” MCHJ misolida qiyosiy tahliliy balansi <sup>7</sup>.**

##### **1-jadval**

|   | 2024        |                             | 2025        |                             | O'zgarish(+/-) |      |
|---|-------------|-----------------------------|-------------|-----------------------------|----------------|------|
|   | Ming so'm   | Jamiga nisbatan % o'zgarish | Ming so'm   | Jamiga nisbatan % o'zgarish | O'zgarish      | %    |
| <b>Aktiv</b>                                      |             |                             |             |                             |                |      |
| Asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli aktivlar | 408 104 106 | 50.2                        | 449 533 271 | 41.6                        | 41 428 855     | 15.4 |
| Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati                  | 1549 454    | 0.19                        | 1631 037    | 0.15                        | 81 583         | 0.03 |
| Uzoq muddatli investitsiyalar                     | 103 058 325 | 12.6                        | 107 693 839 | 10.0                        | 4635514        | 1.7  |

<sup>6</sup> BHMS 39-son “Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash” ga asosan moliyaviy instrumentlar toifalari

<sup>7</sup>“BIOTEX” MCHJ 2024-yil va 2025-yil moliyaviy hisobotlari asosida muallif ishlanmasi

|                              |             |      |                 |      |             |      |
|------------------------------|-------------|------|-----------------|------|-------------|------|
| Zaxira va xarajatlar         | 75 630 434  | 9.3  | 85 441 908      | 7.9  | 9 811 474   | 3.6  |
| Pul mablag'lari              | 19 763 511  | 2.4  | 44260347        | 8.0  | 24 496 836  | 9.1  |
| Debitorlik qarzlari          | 83 229 631  | 10.2 | 121 692<br>563  | 11.2 | 38 462932   | 14.3 |
| Boshqa aktivlar              | 121 585 133 | 14.9 | 270100003       | 25.0 | 148 514 870 | 55.5 |
| Jami aktivlar                | 812 920 904 | 100  | 1080<br>352968  | 100  | 267432064   | -    |
| Passiv                       |             |      |                 |      |             |      |
| O'z mablag'lar manbai        | 335 978523  | 40.3 | 474 179<br>374  | 43.8 | 138 200 851 | 55.8 |
| Uzoq muddatli majburiyatlar  | 372 366 772 | 44.7 | 374<br>173070   | 34.6 | 1806298     | 0.73 |
| Qisqa muddatli majburiyatlar | 104 575 609 | 12.5 | 232000524       | 21.4 | 127424915   | 51.4 |
| Jami passivlar               | 812 920 904 | 100  | 1080 352<br>968 | 100  | 267 432 064 | -    |

#### Debitorlik qarzlari ko'rsatkichlari

2024 yil: 82 229 631 ming so'm

2025 yil: 121 692 563 ming so'm

O'zgarish: +38 462 932 ming so'm

Ulushi:

2024 yil: 10,2 %

2025 yil: 11,2 %

O'zgarish: +1,0

Birinci navbatda, debitorlik qarzlari 38,4 mlrd so'mga oshgan. Bu juda sezilarli o'sish hisoblanadi. Shu bilan birga:balansdagi ulushi 10,2 % dan 11,2 % ga oshgan bu korxonada aktivlarida debitorlik qarzlari salmog'i ortib borayotganini ko'rsatadi Ijobiy jihatlar Sotuv hajmi oshgani sababli qarzlarni ham ko'paygan bo'lishi mumkin. Bu korxonada ko'proq mijozlarga xizmat ko'rsatayotganini bildiradi

#### Salbiy jihatlar (MUHIM)

Debitorlik qarzlarning oshishi → pul mablag'lari aylanishi sekinlashadi

Korxonada pulni o'z vaqtida ololmayapti

Likvidlik (to'lov qobiliyati) yomonlashishi mumkin

Qarzdorlar soni yoki kechikishlar oshgan bo'lishi ehtimol

#### Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki bugungi kunda korxonalarda debitorlik qarzlarni boshqarish yetarli darajada samarali emas yoki sotuvlar ko'proq kechiktirilgan to'lov asosida amalga oshirilmoqda. Debitorlik qarzlari tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonada debitorlik qarzlarning hajmi yil davomida oshgan. Debitorlik qarzlarning ortishi korxonaning pul mablag'lari aylanishini sekinlashtiradi va likvidlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, muddati o'tgan qarzlarning mavjudligi korxonada uchun moliyaviy xavf tug'diradi. Shu bilan birga, asosiy ulush xaridorlar va buyurtmachilar hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa sotuv hajmining oshganini bildirishi mumkin, lekin nazoratning yetarli darajada emasligini ham ko'rsatadi. Agar debitorlik qarzlarning aylanish tezligi past bo'lsa, bu korxonaning mablag'lari uzoq vaqt

davomida muomaladan chiqib qolayotganini anglatadi. Natijada, korxonada o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz:

Debitorlarni qat'iy nazorat qilish tizimini joriy etish. Har bir qarzdor bo'yicha to'lov muddati va qarz summasi doimiy monitoring qilinishi kerak. Kredit siyosatini takomillashtirish. Xaridorlarga tovarlarni muddatli to'lov asosida berishda ularning to'lov qobiliyati oldindan baholanishi lozim. Muddati o'tgan qarzlarni qisqartirish choralarini ko'rish. Jarimalar qo'llash, sud orqali undirish yoki restrukturizatsiya qilish mexanizmlaridan foydalanish mumkin. Debitorlik qarzlari aylanishini tezlashtirish. Erta to'lov uchun chegirmalar joriy etish samarali usul hisoblanadi. Elektron hisob-kitob va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish. Bu qarzlarni hisobga olish va nazorat qilishni ancha osonlashtiradi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash. Bu korxonaning moliyaviy barqarorligini oshiradi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. BHMS 39-son “Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash” ga asosan moliyaviy instrumentlar toifalari.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RQ-404-son «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. Debitorlik qarzlarni hisobga olishga doir jihatlar (16-17- 18-27-moddalar).
3. “BIOTEX” MCHJ 2024-yil va 2025-yil moliyaviy hisobotlari
4. Irzaev Ozod Furkatovich Renessans ta'lim universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti maqolasidan
5. Sh.Mirziyoyev «2025-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi».
6. 15-sonli Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)